

NAZAR ESHONQUL ASARLARI HAQIDA BA'ZI QAYDLAR

*Farhodova Parvina Umidjonovna
Samarqand davlat universiteti 2-kurs talabasi,
Ilmiy rahbar: prof. Nasirov A.N.*

Yozuvchi Nazar Eshonqulning badiiy asarlari inson tafakkuridagi evrilishlarni, shaxs va jamiyatning dialiktik birligini o`ziga xos badiiy uslubda aks ettirishi bilan alohida ajralib turadi. Uning barcha asarlariga xos bo`lgan ramziy majoziy talmiqinlar, inson ruhiyatidagi iztiroblarni, ruhiy-ma`naviy olamidagi o`zgarishlarni “Qora kitob” qissasi misolida ham kuzatish mumkin. Ushbu qissa voqeyalari asar qahramoni tilidan hikoya qilinadi. Asarning sujet liniyasiga e’tibor qaratsak sujet tugundan boshlanadi, asta sekin voqealar rivoji davomida qahramon xarakteridagi ichki kurashlar, ruhiy bir isyon jarayonida uning hayotida tub burilish bo`lgan holatni ko’rishimiz mumkin va u ma’lum ma’noda qahramon iroda yo’nalishini belgilab beradi. Adib unda ko’proq ramziy ma’no kasb etuvchi detal va obrazlarni topib, kitobxon holatini to’la jalb qilib olishga harakat qiladi, qismlarni aniq bir g’oyaviy yo’nalishga bo’ysundirib, asarda yuz berishi mumkin bo`lgan tarqoqlikdan qutila oladi.

Qissani o’qish jarayonida bosh obrazga nisbatan salbiy fikr ham uyg’onishi tabiiy. Biroq asardagi bosh masala xudbinlikka takabburlikka berilgan, ammo buni kech anglagan bir ziyoli insonni tug’ri yo’lga qaytish masalasidir. Bizning jamiyatimiz o’z tabiatni, mohiyati bilan ruhan sog’lom kishilar jamiyatidir. Qissaning bosh qahramoni ham o’z tabiatni bilan aslini olganda xudbin emas. U shunday bir sharoitga tushib qoladiki, o’zida xudbinlik paydo bo’lganligini ongli ravishda sezmay qoladi. Boshqacha qilib aytganda, undagi bu xususiyat ma’lum bir hayot sharoitining mahsuli bo’ladi. Uni o’sha biqiq sharoit, ijtimoiy muhit “g’ijimlab tashlangan qog’oz”ga aylantiradi. U butun yashab o’tgan umrining ma’nisizligini angraydi. Buni asar qahramoni ham ko’rgan tushi tasvirida juda kech anglaganini kitobxon ongiga singdiradi.

“Bilasizmi, taqsirim, o’sha olis tushimda bir kuni uzoqlarda qizg’ish tuman qoplagan oqshom payti sel girdobiga cho’kib ketgan bir odamni ko’rib qoldim, cho’karkan, u jon holatda qichqirdi-uning qichqirig’idan tushimning devorlari zirillab ketdi, so’ng u ko’pirib oqayotgan tim qora loyqa ostida ko’rinmay qoldi. Men uni abadiy cho’kib ketganini angladim-o’sha cho’kib ketgan odam men edim, taqsirim, siz ko’rib turgan va har kuni gunihkor, quyoshni olqishlab uyg’onadigan shunchaki jasad, o’sha cho’kib ketgan odamning qichqirig’i, xolos (1,193-b).

Bundan ko’rinib turibdiki, u o’zining tahqirlanganligini, bir so’z bilan aytganda haqoratlanganligini butun vujudi bilan his qildi, uning qalbi shu dahshatli hisning dahshatli maskaniga, butun ruhiy olami esa mislsiz dramalar uchog’iga aylandi. Asar

qahramoni boshi uzra tragik hislar qanot qoqa boshladi, u bu qanot sharpalarini baralla sezdi. Shuning uchun ham uning ruhiyatida kechayotgan hislar tug'yoni o'z qizini o'ldirish darajasigacha kelib yetdi. Chinakam galyutinatsiyaning_boshlanishi undagi qo'rqish, vahima, dahshat, o'lim hissi bilan bog'liq. Bu tuyg'u kun sayin kuchayib borar, uning butun xayoli yolg'iz shu bilan band edi. Zotan, xuddi shu hisning kuchayishi uning ichki dunyosidagi tragik dinamika edi. Ushbu dinamika tufayli bu his yangi, yovuzlik tuyg'usiga aylanadi va u o'z qizini bo'g'ib o'ldiradi.

Asar qahramoni yoshligida bir kitob o'g'irlab so'ng o'sha kitob ta'siriga tushib qoladi. Uning keyingi hayoti o'ta dramatik kechadi. Uning ruhiy iztiroblari og'ir kechinmalari o'sha kitob ta'sirida edi. U kitob ta'sirida dunyoni qaytadan o'zgartirmoqchi, yangidan ko'rmoqchi bo'ladi va o'sha yo'lda ikkala o'g'lini qurbon qiladi hatto o'z qizini bo'g'ib o'ldiradi. O'sha kitob "iblis" kitobi bo'lib, qahramonning qismati va taqdiriga aylanadi. U o'zini-o'zi anglab yitgan chog'ida bu taqdirdan, qismatdan qochib ketolmaydi. Kitobni uloqtiradi, ko'chaga tashlab keladi, hatto yoqib yuboradi, biroq kitob uning javonidan, shkafidan, yostig'i tagidan, stol ustidan chiqaveradi, paydo bo'laveradi. Yozuvchi qissada ikkala o'g'il va qizini ham ramziy obrazlar vositasida gavdalantiradi. Bu orqali ijodkor tiriklik va hayot, yovuz maqsadlar va ularning oqibati qanday oqibatlarga olib kelishi haqida fikr yuritadi. Uning kichik o'g'li "qo'rquv musiqasi"ni yaratadi. Bu musiqada "paq-puq, gumbirlash, o'q ovozlari, yalong'och yelkaga tushayotganday qamchining sharop etgan tovushi eshitilardi. Orasira gumbirlash eshitilar, so'ng yana kimlarningdir chinqiriqlari kelardi". Katta o'g'li chizgan sur'atda esa "Keng va biyday dala qaydandir qo'ng'ir rangli tog'ga borib tutashar, kun shafaq payti, tog' cho'qqilari ortida so'nayotgan yarim quyoshning atrofga xira nur sochib turgani tasvirlangandi. Dalada odamlarning suyaklari qalashib yotar, ular qop-qora edilar. Tog'da qalashib yotgan suyaklar va qovjiragan maysalar, minglab sajdaga bosh qo'yan odamlar boshida qo'llarini ko'kka nayza qilgancha qop-qora kiyimda ulug'vor va g'olib qiyofada cho'qqisoqol turar, u o'ziga sajda qilayotganlarga kibr va muzaffar nigohini qalab, go'yo qo'li bilan ko'kni parchalamoqchiday turardi" (1,226-b). To'g'ri qissadagi ushbu "Qo'rquv musiqasi"da ham "Isyon" sur'atida ham o'ziga xos ramziylik bor. Bu bir jihatdan har ikkala o'g'ilni xarakterini va ruhiyatini ochishga qaratilgan bo'lsa-da, qissaning tub mohiyatini, to'g'rirog'i asar g'oyasini ochishga ham qaratilgandir. Ikkinchchi jihatdan esa, aniq salbiy munosabat, inkor ruhi kuchli, hodisaning dahshatli manzarasi keskinlashtirilgan qabariq holda chiziladi, voqeyaning fojey mohiyatini butun ziddiyatlari bilan kitobxonga yetkazishga harakat qilinadi. Hatto bu suratni "dunyoni tozalash va o'zgartirish" deya baholaydi.

Biz sho'ro davrida adabiyot va san'atni ijtimoiy maqsadlar yo'liga qaratilganligini va shunga xizmat qildirilishi lozim degan aqidalarni, yozuvchi va shoirlarni, san'atkorlarni ana shunday asarlar yaratishga "majburlash" hollarini guvohi bo'lamiz.

Bunga misollar keltirib o'tirishning hojati yo'q. "iste'dodli shaxsning ko'nglidan o'tmagan ijtimoiy muammo qanchalik dolzARB bo'lmasin, o'z holicha badiiy so'zga evrilmaydi. Chunki, iste'dodli kishida ijodiy kayfiyat, ilhom ijtimoiy muammo tufayli emas, ko'ngil tebranishlari, ruhiy muvozanatni buzadigan hissiy turtki sababli paydo bo'ladi. Turkining qayerdan va qachon berilishi esa Yaratgandan o'zga hech kimga ma'lum emas. Ko'ngilning nimadan tebranishini, istedodli shaxsning ruhiy muvozanati nima sababli, qachon buzilishi va qanday natija berishini oldindan bilib bo'lmaydi. Badiiy adabiyot ko'ngil ishi bo'lgani uchun ham unda ulug' va muqaddas tuyg'ular bilan bir qatorda, tuban hissiyotlar, nozik injiqliklar, kutilmagan to'lg'amlar bo'lishi mumkinligi tabiiydir" (2,23-b).

To'g'ri 80-yillar oxiri, 90-yillarning boshlaridagi vaziyat bizda absurd adabiyotning, absurd inson obrazining tug'ilishi uchun ma'lum darajada zamin tayyorladi. Yetnish yillik va'da, orzu- umidlarning puchga chiqishi, jahonda eng adolatli, baxtli boqiy tuzum deb jar solingan tuzumning istiqbolsiz, eng ilg'or, birdan-bir tug'ri qarash sanalgan markscha-leninchA ta'limotning yaroqsiz bo'lib chiqishi ko'plarni sarosimaga solib qo'ydi. Bu hoi hayotini, bor zakovatini shu ma'nisiz ta'limot yo'liga tikkan, adashgan, endilikda aqlini tanib mudroq vujudi uyg'ongan odamlar uchun misilsiz fojea bo'ldi. To'g'ri, awallari, chunonchi turg'unlik yillarida ham sovet davri hayotining salbiy jihatlarini,adolatsizlik va shafqatsizliklarini ko'rsatuvchi, fosh etuvchi asarlar yaratilgan edi. «Biroq butun boshli ijtimoiy tuzumning, shu tuzum uchun hayotini tikkan shaxs fojeasining bemaniligini izchil tarzda ochib beruvchi asarlarning paydo bo'lishi uchun keyinchalik sharoit vujudga keldi. Zero, qissa qahramoni ta'kidlaganidek "men qizim boshida turgancha hammamiz, qizim, o'g'llarim, o'zim-butun insoniyat shu paytgacha bo'shliq ichida yashab kelganimizni, shu paytgacha orzu qilib, intilib, yetishib kelgan narsalarimiz ham zim-zijo nomsiz bo'shliqdan iborat ekanligini angladim" (1,214-b).

Zero, yozuvchi ushbu muhit orqali qahramon ruhiyatida kechayotgan turli qiynoqlar natijasida, inson tafakkuri va xarakterida tub burilish mohiyati uchun zamin tayyorlaydi. Qahramon xarakterini muhitga, vaziyatga, sharoitga, qarab o'zgarib borishini va qachondir o'zligini tanishiga intilish kuzatiladi. Bu aloqa va munosabat uning xislat va xususiyatlarini aniq namoyon qiladi. Ana endi u o'z vujudidagi ikkinchi "men"ni yengib ochiqdan- ochiq unga qarshi kurashish jarayoniga o'tadi. Cho'qqi soqolni uyidan haydar chiqaradi. Uning kitobini yo'q qilishga tushadi. Biroq buning ilojsiz ekanligini anglab yetgach, shaytonvachchalar va yovuz qabih niyatlarni dunyoga keltiruvchi (ramziy obraz sifatida ifodalangan: ta'kid bizniki X.D) "ona" qizini bug'ishga tushadi. U o'z hayoti va taqdirini ma'no mohiyatini chuqr anglab yetadi. U yaratgan "o'tov qurilmasdan turib vayron" bo'lganini his qiladi. Uning hayoti "yo'q narsani izlashga mubtalo qilingan inson" hayoti ekanligini biladi. Uning ichida

“ulkan toshqin boshlangan”ligi, shubha va gumanlar bir shaxs foje qismatini hal qilib, tug'rirog'i uni "adoi tamom" qiladi [6,12-bet].

Dunyoqarashlarning bir-biriga payvandlashishi jarayoni taraqqiyotning joriy bosqichiga milliy jahon adabiyoti tajribalariga mushtarak jihatlarni keltirib chiqarishi tabiiy, albatta. Ijodcoming ayni paytdagi tuyg'u kayfiyati o'ziga xos shakl va uslubni taqozo etadi [7,34; 8,499]. Badiiy didning turfa xilligi uslubiy rang-baranglik hamda tafovutlanishini ta'min etadi. Shu o'rinda, tasvir predmeti ichki va tashqi omillar ijodkor iqtidori jamiyat idiali hamda ijtimoiy tarixiy sharoit birligidan oziqlanishini alohida ta'kidlab o'tishjoizdir.

Adabiyotlar:

- 1.N. Eshonqul. Yalpiz hidi. –T.: "Sharq", 2008.-398 bet.
2. Yo'ldoshev Q. Anglashning azobli yo'li // Guliston. 2005. 1 -son.
- 3.Ulug'ov A. O'zgarayotgan adabiyot manzaralari // Sharq yulduzi. 1998. 6-son.
- 4.Normatov U. Umidbaxsh tamoyillar. -T.: "Ma'naviyat", 2000. -109 bet.
- 5.Насиров А.Н. Конфликт и художественная интерпретация. Образование, наука и инновационные идеи и мире. Международный научно-образовательный электронный журнал. – Фергана, 2023. 11-15-стр.
- 6.Nasirov A.N. Turk adabiyotinin gelisiminde devlet rakamlarinin veri (Mustafa Kamal Ataturknun faaliyateti ornegi userinden). “In memory of the 142th anniversary of his birth” 3rd international Ataturk symposium. 19-may, 2023. Azerbaijan Attaturk Center, Baku, 10-15-betlar.
- 7.Насиров А.Н. Свойства художественного языка в историческом романе. Евразийский союз ученых (ЕСУ). Международный научно-исследовательский журнал. №7 (76) / 2020. 3 часть. Impact Faktor 2020: 6.05. ISSN 2411-6467. 33-35-стр.
- 8.Nasirov A.N. Artistic chronotope interpretation in Odil Yakubov's novels. Academicia: An Internatioonal multidisciplinary Research journal ISSN222-49-7137. Impact Faktor SJIF 2020: 7.13. Str. 498-501.